

FANLARARO ALOQALAR O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Andaqulova Farzona Xayrulla qizi

Toshkent shahridagi kimyo xalqaro universitetining
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Fanlararo aloqalar o‘quvchilar faolligini oshirish omili sifatida qo‘llaniladigan metodlar, muammo va yechimlar hamda takliflar tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: Fanlararo aloqalar, integratsiya, integratsiyalash, kognitiv salohiyat, ta’lim, vosita, darslik, dastur, o‘quv reja, Fanlararo integratsiyaning psixologik va falsafiy asoslari, o‘qitish, “Bolalar ijodini o‘rganish metodi”, “Galereya” metodi

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны методы, проблемы и решения, а также предложения по междисциплинарной коммуникации как фактору повышения активности студентов.

Ключевые слова: Межпредметные отношения, интеграция, интеграция, познавательный потенциал, образование, инструмент, учебник, программа, учебный план, Психолого-философские основы междисциплинарной интеграции, обучение, “Методика изучения детского творчества”, метод “Галерея”

ABSTRACT

This article describes the methods, problems and solutions, as well as proposals for interdisciplinary communication as a factor of increasing student activity.

Key words: Interdisciplinary relations, integration, integration, cognitive potential, education, tool, textbook, program, curriculum, Psychological and philosophical foundations of interdisciplinary integration, teaching, “Method of studying children’s creativity” “Gallery” method.

21-asrga kelib insonning asosiy qadriyati uning rivojlanish qobiliyati, kognitiv salohiyatning mavjudligi bilan belgilanib kelmoqda. Bilish ehtiyoji esa inson ma’naviyati va ma’rifatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday keng ko‘lamdagi rivojlanish har bir insondan yanada o‘qib o‘rganish, izlanish, doimo yangilik yaratishni talab etadi. Bunday islohotlarni amalga oshirish uchun esa malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi globallashuv

davrida boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni ilm olish jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun xorijiy tajribalar o'rganilib kelinmoqda hamda eng saralari tatbiq etilyapti. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatib kelmoqdaki, boshlang'ich sinflardagi fanlarni o'zaro bog'lab, umumlashtirib o'tish ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fanlararo o'zaro bog'liqlik ya'ni fanlarni integratsiya qilish o'quvchilar faolligini oshirishda, darsni yanada qiziqarli olib borishda, yangicha metodlarnin foydalanishga olib keladi.

Integratsiya so'zining ma'nosiga keladigan bo'lsak (lot.dan) - qayta tiklash; tizimning alohida differensiyalangan qismlari va funktsiyalarining bir butunga o'zaro bog'lanish holati, shuningdek, bunga olib keladigan jarayon hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar ta'limning integratsiyasini turli xil yo'llar bilan izohlaydilar. Masalan, Yu.M.Kolyagin ta'lim tizimiga nisbatan "integratsiya" tushunchasi ikki ma'noni oladi: maqsad va ta'lim vositasi sifatida.

Integratsiya ta'limning maqsadi sifatida o'quvchiga dunyo qismlarining tizim sifatida o'zaro bog'liqligini hamda umumlashmasini aks ettiruvchi bilim va ko'nikmalarni shu bilan birga o'laroq malaka berishi kerak, bolani o'rganishning dastlabki bosqichlaridan boshlab barcha elementlar o'zaro bog'liq bo'lgan butun dunyoni tasvirlashga o'rgatish uchun mo'ljallangan. Integratsiya o'quv quroli sifatida talabaning bilimdonligini rivojlantirishga, uning dunyoviy bilimlarini oshirishga, ta'limdagi mavjud tor ixtisoslikni va yo'nalishlarni yangilashga qaratilgan.

Agar mashg'ulotning boshidan oxirigacha integratsiya jarayonini qo'llasak, barcha o'quvchilarda faqat bitta fanga nisbatan tushuncha emas, bog'langan tarzda o'tilgan turli xil fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar sintezi hosil bo'ladi. Bu degani o'quvchida turli xil fanlarga oid ko'nikmalar shakllanib borishini anglatadi.

Shu o'rinda Vernadskiyning bir so'zlarini eslatib o'tsam: Aqlli inson - va faqat u insoniyatning kelajagini optimal tarzda belgilashga qodir, lekin uning o'limini o'z faoliyati bilan oldindan belgilamaydi". Bu so'zlarning ma'nosi shuni anglatadiki, Bilish hamda o'rganish jarayoni cheksizligini, fanning zamonaviy yutuqlari esa kelajakda ham davom ettirilishi mumkinligini anglasak bo'ladi.

Xozirgi kunda darsliklarning haddan tashqari murakkabligi ba'zan bolaning bilimga bo'lgan qiziqishini ham so'ndirishga olib kelishi mumkin. O'qitish tamoyillari, usul va metodlarning yangilanishi, jadal rivojlanishi, dastur va darsliklarning yangilanishi, yangi tipdagi ta'lim muassalarining paydo bo'lishi esa integratsiyalashgan ta'lim metodlariga yanada ko'proq qiziqish uyg'otadi. Fanlararo aloqalar esa o'zlashtirilgan bilimlarga tanqidiy qarashga, dunyoqarashning kengayishiga olib keladi.

Yanan bir ijobiy tarafi shundaki, o'quvchilarga qo'yilgan haddan tashqari o'quv yuklamasi bolalarning sog'ligiga, jismoniy va ruhiy holatiga, bilim qabul qilish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Olinadigan bilimlar miqdori ko'p ammo bu bilimlarga

berilgan vaqt o'rtasida tafovut bor. Shuning uchun ham ushbu muammoni yechishning eng samarali yechimi fanlararo integratsiyadan foydalanish hisoblanadi.

Fanlararo integratsiyaning psixologik va falsafiy asoslarini Pavlov va Sechenov asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, psixologlar fikrlash va xotira xususiyatlarini tahlil qilib, o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, yangi materialni yaxshiroq eslab qolish uchun o'quvchilarda ilgari olingan bilimlarni takrorlash qobiliyatini shakllantirish kerak. Tabiatda o'zaro bog'langan narsa yoki hodisalar ham inson xotirasida bog'langan. Predmetlararo aloqalar ob'ektga turli burchaklardan qarash va tizimlararo assotsiatsiyalar asosida voqelikning butun ob'ekti yoki hodisasini yanada mustahkamroq eslab qolish imkonini beradi. Shunday qilib, fanlararo integratsiya bugungi kunda ta'limni rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib kelmoqda. doirasi bilan belgilanadi. Bu, birinchi navbatda, kognitiv qiziqishning kuchayishi va umumiy ta'lim qobiliyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir.

Integratsiyalashgan darsni o'tkazishda o'qituvchi oldida bir qator muammo va vazifalar turadi. Eng avvalo, malum bir sing o'quvchilarining tayyorgarli darajasi tahlil qilinadi. Chunki fanlararo aloqalarni o'rnatishda bolaning yoshi va sinfi ham inobatga olinadi. Shundagina o'quv faoliyatidagi fanlarning barchasini integratsiyalashgan jarayonga aylantirsak bo'ladi.

Fanlararo aloqa jarayonida o'quvchilarga mos va kerakli, samarali metodlarni tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Misol tariqasida bir qancha metodlarni tavsiya qilmoqchiman.

1. Bolalar ijodini o'rganish metodi

Qayerda va qanday tartibda qo'llaniladi:

Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o'quvchilarning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Maqsad O'zbekiston yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan yetishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarining namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar va sayllar va hokazo

2. Galereya metodi va uni amalga oshirish bosqichlari

“Galereya” usuli kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muxokama qilish imkonini beradi. Bunda guruhning har bir a’zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirok etishi va o‘z ulushini qo‘shishi mumkin.

1-qadam. Masalani qo‘yish, tarbiyachi har bir guruhga ma’lum muammo yoki masalani beradi.

2-qadam. Har bir guruh o‘z masalasi ustida ishlaydi. Masalalar ustida ishlash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 5-10 daqiqa).

3-qadam. Kichik guruhlar qo‘shni guruhlar masalasi yechimini oxirigacha yetkazishga o‘tish. Har bir kichik guruh o‘z g‘oyalarini yozgan katta varaqni olmasdan doira bo‘ylab siljiydi. Variant sifatida guruh siljishi o‘rniga doira bo‘ylab ishlangan g‘oyalar yozilgan katta varaqni uzatish mumkin, maktabgacha ta’limda ko‘proq rasmlardan foydalaniladi.

4-qadam. Qo‘shni masalasi yechimini oxirigacha yetkazish. Har bir kichik guruh katta varaqqa yozilgan qo‘shni guruh g‘oyalarini o‘rganadi; savol belgisi bilan rozi bo‘lmaganlarni belgilaydi; qo‘shni masalasi yechimi bo‘yicha o‘z g‘oyalarini yozadi. 5 daqiqadan keyin guruhlar doira bo‘ylab keyingi kichik guruhga o‘tib, yana joylari bilan almashadi.

5-qadam. O‘z masalasiga qaytish. Masaladan masalaga doira bo‘yicha o‘tishlar har bir kichik guruh o‘zining dastlabki masalasiga qaytish bilan tugallanadi. Guruhlar katta varaqlarida yig‘ilgan g‘oyalarni o‘rganadilar.

6-qadam. Ish natijalari muhokamasi. Har bir guruh navbat bilan o‘zlarining qog‘oz varaqlarida yig‘ilgan natajalar- g‘oyalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi. Masalan, maktabgacha ta’limda qo‘llaniladigan mavzular: xasharotlar, mevalar, sabzavotlar, transport vositalari, gullar, ertak qaxramonlari, suv xususiyatlari, tabiat xodisalari va hokazo.

Bolalar nafaqat tayyor rasmlardan balki o‘zlari rasm xam chizishlari mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integratsiyalashgan fanlar tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan hamda xorijiy mamlakatlarning o‘quv rejalariga kiritilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlarga ko‘proq e’tibor qaratilganligini anglashimiz mumkin. Shuning uchun ham tabiat-jamiyat munosabatlarni uyg‘unlashtirish masalalari, murakkab fanlararo aloqalarni o‘rnatishning o‘quv rejalarini va dasturlarida atrof-muhit bilan mamlakatimizning umumta’lim maktablari katta ahamiyatga ega.

O‘quv materialini taqdim etishning murakkabligi dars ko‘lamini kengaytiradi, integratsiyani o‘qitish, ta’lim va rivojlanishni birlashtirgan jarayonga aylantiradi. Har qanday shakldagi va har qanday turdagi dars integratsiyalashgan dars sifatida tuzilishi mumkin, bunda integratsiya o‘quv muammosini hal qilish usuli, fanga barqaror

qiziqishni shakllantirish uchun darsda harakat qilish usuli sifatida tushuniladi. Bunday aloqalar esa globallashuv jarayonida mamlakatimizning ta'lim sifati bo'yich yuqori o'rinlarda turishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. https://www.google.com/search?q=Interdisciplinary+communication+as+a+factor+of+increasing+students%27+activity&rlz=1C1GGRV_enUZ927UZ927&oq=Interdisciplinary+communication+as+a+factor+of+increasing+students%27+activity&aqs=chrome..69i57.919j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8
2. Interdisciplinary communication as a factor of increasing students' activity articles
3. <https://spbtp.ru/uz/mezhpredmetnye-integracii-neobhodimoe-uslovie-sovremennogo/>